O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI
DASTURIY INJINIRING KAFEDRASI

5330200 -“Informatika va axborot texnologiyalari” yo’nalishi bo’yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O’zbek tilining elektron lug’ati uchun dasturlar majmuasini yaratish.

Ish kafedraning 2020 yil ___ _____dagi____-sonli majlisda muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri _____

dots. A.B.Qarshiyev

“___”_____2020y.

Bajardi: 404-guruh talabasi
_____Maxmidov Shirinboy

Ilmiy rahbar: _____

dots. A.B.Qarshiyev

S A M A R Q A N D – 2020

M U N D A R I J A

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi «Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida» PQ-1730 sonli qarori Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyotida yana bir muhim bosqich bo’lib qoladi. Prezidentimiz I.Karimov XXI asrni ma’naviy- ma’rifat asri, ilm-fan madaniyat va axborotlar asri deb ta’riflar ekan, bu bilan hozirgi davrning muhim belgisi va xususiyatini ham belgilab berganini payqab olish qiyin emas [1].

Hozirgi kunda mamlakatimizni kompyuterlashtirish jadal rivojlanmoqda. Ayni vaqtda tilshunos olimlarimiz o’z sohasida o’zbek tilining so’z boyligi, yozuvchilarimiz asarlarida qancha so’zdan foydalanganligini aniqlashi muammolardan biridir. Buning uchun kompyuter dasturiy vositalari ishlab chiqilmoqda. Ulardan misol qilib har xil lug’at(o’zbekcha-inglizcha, o’zbekcha-ruscha)larni yoki kirildan lotinchaga o’tkazish dasturlarnini olish mumkin. O’zbek tili statistik tahlili uchun dasturiy ta’minotlar yaratish oxirigacha yetkazilmagan. BMI dagi dasturiy ta’minot o’zbek tili matnlarning statistik tahlili uchun qism dasturiy vosita bo’lib hisoblanadi.

BMI da qaralayotgan dasturiy vosita dolzarbliligi va zamonaviyligi shundaki o’zbek tili so’z boyligini aniqlash uchun yordam beradi. Undan tashqari yozuvchilarning asarlarida qancha so’zlardan foydalangan, qaysi so’zni o’z asarida ko’p foydalanganligini aniqlash mumkin. Bu esa yozuvchimizning so’z boyligi aniqlash statistik tahlili uchun foydalanishga yordam beradi.

Ishning maqsadi. BMI ishining maqsadi o’zbek tilining elektron lug’atini hosil qilish dasturiy ta’minotini yaratish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish zarur:

- kompyuter lingvistikasiga oid, xususan, lug’atlar va ularni tuzishgaoid adabiyotlarni o’rganish;

- o’zbek tilining kompyuter yordamida statistik tahlili, alfavit-chastotali lug’atlar tuzilishi, mavjud elektron lug’atlar yaratish kabi ishlar bajarilishining zamonaviy darajasini tahlil qilish;
- o’zbek tili elektron lug’atini yaratishning dasturiy majmuasini loyihalash;
- elektron lug’at yaratish algoritmlarini ishlab chiqish;
- dasturiy majmuani kodlashtirish, sozlash va sinovdan o’tkazish;
- dasturiy majmuani o’zbek tili elektron lug’atini yaratish uchun tadbiq etish.

Ishning amaliy ahamiyati. Matnlarning statistik tahlili va uning natijalari asosida xulosalar chiqarish tilshunos olimlar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Matnlar statistikasi uchun kompyuter dasturlari yaratish va ularni turli lug‘atlar tuzish jarayonida qo‘llash tilshunoslar mehnatini engillatuvchi bir vositadir. Ilgari S.Muxamedov, S.Rizaev, X.Arzikulov, S.Karimov va boshqa olimlar tomondan o‘zbek tilining statistik tadqiqotlariga oid ilmiy ishlar bajarilgan va o‘sha paytda mavjud katta EHMlar uchun dasturlar majmualari ham yaratilgan. Lekin, hozirgi kunda matnlar statistikasiga oid masalalarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida hal qilishga mo‘ljallangan dasturiy mahsulotlar mavjud emas. Xorijda va MDH mamlakatlarida tabiiy til matnlarini statistik tahlil qilishga va turli lug‘atlar tuzishga mo‘ljallangan kompyuter dasturlari ko‘plab yaratilgan. Lekin ularni o‘zbek tili uchun bevosita ishlatib bo‘lmaydi. Shuning uchun, katta hajmdagi matnlarning kompyuter yordamida statistik tahliliga mo‘ljallangan amaliy dasturlar majmuasini (ADM) yaratish amaliy ahamiyatga ega ishdir [2, 3].

Dasturni o’zbek tili elektron lug’ati hosil qilshda foydalanishi mumkin. Undan tashqari tadqiqotchi filologlar ham dasturdan foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ish kirish, 3ta bob, xotima qismi, adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Kirishda mavzuning dolzarbligi asoslangan, ishning maqsadi, vazufalari va amaliy ahamiyati keltirilgan, ishning tarkibiy qismlari tavsiflangan.

Birinchi bobda dasturiy ta’minotni loyihalashga doir nazariy ma’lumotlar keltirilgan, elektorn lug’at yaratish dasturiy majmuasini loyihasi ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bobda yaratilgan elektron lug’atni faylga yozish va fayldan ko’rish funksiyalari, hamda so’zlarni saralash algoritmlari keltirilgan.

Uchinchi bobda elektron lug’at yaratilish strukturasi, dasturning tavsifi va elektron lug’at dasturidan foydalanish ketma-ketlik jarayoni berilgan.

Xotima qismida birituv malakaviy ishni bajarish jarayonida amalga oshirilgan ishlar va natijalar sanab o’tilgan, olingan natijalar asosida xulosalar chiqarilgan. Adabiyotlar ro’yxati 2ta banddan iborat bo’lib, BMI ni bajarishda foydalanilgan huquqiy-me’yoriy, ilmiy-uslubiy va badiiy adabiyotlarni o’z ichiga olgan.

Ilova qismida yaratilgan dasturlarning C++ tilidagi kodi berilgan.

I. BOB. ELEKTRON LUG‘AT DASTURIY TA’MINOTINI LOYIHALASH

1.1. Dasturiy ta’minotni loyihalashtirishning nazariy asoslari

Loyihalash deganda, foydalanuvchi yoki kuzatuvchi nuqtai nazaridan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning harakati tushuniladi. Bu jarayonning maqsadi sifatida hosil qilinayotgan mahsulotning qismi orasidagi o‘zaro bog‘liqlik tashqi muammolar amalga oshirilishini keltirish mumkin. Ular tashqi spetsifikatsiya ko‘rinishda rasmiylashtirilib bu spetsifikatsiyalar foydalanuvchilarga va kenga ommaga qaratilgan bo‘lishi kerak. Tashqi loyihalashning maxsus usullari va ko‘rinishlari bo‘lmasligidan qat’iy nazar mahsulotni tashkil qiluvchi tashqi funksiyalar konsiptual birligiga ega bo‘lishlari lozim. Konseptual birlik esa foydalanuvchi bilan muloqotni mezoni bo‘lib xisoblanadi [9].

Har qanday dasturiy ta’minotni loyihalash uning tuzilmasini, ya’ni uning tarkibiy qismlari va ular orasidagi bog’lanishlarni aniqlashdan boshlanadi.Tuzilmani aniqlasht natijasi tuzilmaviy yoki funksional sxema va komponentlar (tarkibiy qismlar) tavsifi sifatida tasvirlanishi mumkin.

Dasturning tuzilmaviy sxemasi deganda uning tarkibini va qismlarni boshqarishdagi o’zaro ta’sirlarni aks ettiruvchi sxemani tushunamiz. Biz loyihalayotgan dasturda tuzilmaviy kompanentlar faqat qismiy dasturlardan iborat. Umuman olganda dasturning komponentalari, qismiy dasturlar, ma’lumotlar bazalari, resurslar bibliotekasi va hokazolardan iborat bo’lishi mumkin.

Tashqi loyihalashning maxsus usullari va ko‘rinishlari bo‘lmasligidan qat’iy nazar mahsulotni tashkil qiluvchi tashqi funksiyalar konsiptual birligiga ega bo‘lishlari lozim. Konseptual birlik esa foydalanuvchi bilan muloqotni mezoni bo‘lib xisoblanadi.

Konseptual birlikka ega bo‘lmagan mahsulotlarda foydalanuvchi bilan muloqot kamiga qiyinchilik bilan amalga oshiriladi.

“Tashqi loyihalash dasturlash bilan umuman bog‘liq emas. Bunda ko‘proq atrof-muhitni ko‘zda tutishi, inson psixologiyasini, foydalanuvchi muammolarini e’tiborga olish kerak.

Tashqi loyihalarni hosil qilishda ishlab chiqaruvchilarning dasturiy mahsulot ishonchliligini oshiruvchi uch faktorni ko‘zda tutish lozim”.

1. Foydalanuvchi xatolarini minimumga keltirish.

2. Xatoliklar mavjud bo‘lsa, ularni aniqlash.

3. Dasturlash vositasi murakkabligini kamaytirish.

Tashqi loyiha murakkabligiga qarab va uning dasturiy mahsulotda tutgan o‘rniga ko‘ra quyidagi standart bo‘yicha tasdiqlangan qoidalarni hisobga olishshart.

1. Foydalanuvchi bilan bo‘lgan muloqotda uning tayyorgarligi bilan foydalanuvchi ishlayapgan muxitdagi cheklanishlar xisobga olinadi.

2. Natijaviy qiymatlar talab qilinayotgan ko‘rinishga ega bo‘lib, imkoniyat boricha izoxlanmog‘i lozim.

3. Foydalanuvchi iloji boricha klaviaturadan kamroq axborot kiritsin.

4. Kiritilayotgan va chiqarilayotgan qiymatlar uchun konseptual birlik ta’minlanmog‘i lozim.

5. Dastur yordam ko‘rinishidagi vositalariga ega bo‘lishi mumkin.

6. Ekrandan unumli foydalanish.

7. Tizim (dastur) shu ko‘rinishda loyihalashtirilgan bo‘lishi lozimki, foydalanuvchi xoxlagan vaqtida ishini tamomlash yoki dastlabki xolatga qaytishi mumkin bo‘lsin.

8.Foydalanuvchini har bir harakati tizim tomonidan tekshirilsin.

Modul – bu kamida bitta operatordan iborat, tugallangan dastur.

Kant qonunlari:

1) Ayrim modullarni ayrim funksiyalardan tashkil topgan ko‘rinishda rasmiylashtirish modullar mustahkamligini ta’minlaydi;

2) Modullararo bog’liqlikni rasmiy mexanizmga ko‘ra almashishini xisobga olib kamaytirish -bu modullararo bog’liqlikni kuchsizlantiradi.

3) Bog’liklikni amalga oshirishda standart qoidalardan foydalanish lozim. Bunda boshqarish va axborot almashish orqali bog’liqlik ko‘zda tutiladi.

4) Dasturlash kompleksi unchalik katta hajmga ega bo‘lmagan modullardan tashkil topgan bo‘lib, bog’liqlikni ierarxik tuzilishda akslantirmog’i lozim. Bu tuzilish orqali har bir dasturchi har bir modul va dasturni ish xakidagi ma’lumotga ega bo‘lishi lozim

5) Qoidaga ko‘ra har bir modul 10tadan 100tagacha tashkil topgan bo‘lishi kerak.

6) Modul mustahkamlik xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Modulning mustahkamligi uning ichki aloqalari orqali belgilanadi.

7) Modulning ishini oldindan ko‘ra bilish lozim ya’ni modul ko‘rinisha mustakil bo‘lishi lozimki u o‘zining dastlabki ishlatishlariga boklik bo‘lmasin.

8) Yechimlarni qabul qilish strukturasi aniqlangan bo‘lishi lozim, bu talablarga ko‘ra qabul qilinayotgan yechimlar ta’sir qilayotgan modullar chiqariladigan modullar sifatida rasmiylashtirilishi lozim.

Ma’lumotlarga murojaat qilinish minimumga keltirilsin ya’ni har bir modul talab qilayotgan ma’lumotlar hajmi iloji boricha kichikroq bo‘lishi lozim [9].

1.2. Elektron lug’at yaratish dasturlarining loyihasini ishlab chiqish

Axborot texnologiyalar sohasida kompyuterda biron-bir masalani yechilishini ta’minlaydigan ishdir. Qo’yilgan maqsadni amalga oshirish uchun kerakli ma’lumotlar tarkibi, tuzilishi, ifodalanishi aniqlangan bo’lib, ular orasidagi bog’lanishlar aniq ifodalangan bo’lsa, masala qo’yilgan deb hisoblanadi.

Yaratilgan dasturiy mahsulotni tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar faoliyatida foydalanish nazarda tutiladi.

Ushbu bitiruv ishda kompyuter yordamida o’zbek tilining elektron lug’atini hosil qilish dasturiy majmua yaratilishi nazarda tutilgan. Shuning uchun qaralayotgan masala dolzarb ahamiyatga ega.

Shunday qilib, yaratiladigan dasturning vazifasi o’zbek tili matnini dasturga kiritish va so’zlarni hisoblab borish jarayoni nazarda tutilgan. Hosil bo’lgan elektron lug’atni faylga saqlab borish kerak. Bunda fayldagi so’zlar yangi lug’at bilan solishtirilib faylda mavjud bo’lmagan so’z olinadi. Shu tariqa jarayon davom

ettirilib, elektron lug’at ma’lum hajmi oshishi kamayib boradi. Ma’lum hajmga yetganda elektron lug’at o’zgarmay qoladi. Bu esa o’zbek tilining so’z boyligini aniqlashga imkon beradi.

Dasturiy mahsulotga qo’yiladigan talablar

I. Funksional talablar.

Dastur quyidagi funksiyalarni bajara olishi zarur:

- Boshlang’ich qiymatlarni kiritish;
- Kiritilgan matndagi so’zlani ajratib olish;
- So’zlar ro’yxatini tuzish

Natijalar:

- So’zlar ro’yxatini faylga kiritish;
- So’zlarni miqdorini aniqlash.

II. Ishonchlilikka qo’yiladigan talablar:

- Dasturda kiritilgan matnni so’zlarga ajratib olmasdan so’zlar ro’yxatini yaratib bo’lmaydi.
- Foydalanuvchining dastur bilan ishlayotganda foydalanuchiga ko’rinmaydigan har bir harakat haqida ma’lumot beradi.

III. Texnik vositalar tarkibi va parametrlariga qo’yiladigan talablar:

- Dastur IBM turidagi barcha shaxsiy kompyuterlarda ishlashi kerak;
- Minimal konfiguratsiya:

Prosessor turi: Pentium va undan yuqori.

Operativ xotira hajmi: 32 Mb va undan yuqori.

IV. Axborot va dasturiy moslashuvga talablar.

Dastur Windows oilasiga mansub operasion tizimlarda (Windows 95, Windows 98,Windows 2000, Windows XP va h.k.) ishlaydi.

Dasturning tuzilmasi

Dasturning tuzilmasini aniqlashni qadamma-qadam detallashtirib borish usuli asosida bajaramiz.

Qadamma-qadam detallashtirish dastur yaratishning “*quyiga borish*” yondashuvini amalga oshirib, strukturali dasturlashning asosiy kostruksiyalarini ishlatishga tayanadi. Bu usulda algoritmni ishlab chiqish qadamma-qadam ketma-ketlikda bajariladi. Har bir qadamda vazifalar qismiy vazifalarga bo’linadi. Birinchi qadamda qo’yilgan masala yechimi tavsiflanib, qismiy masalalar ajratilsa, navbatdagi qadamda qismiy masalalar yechimi tavsiflanib, bir darajaga quyi bo’lgan qismiy masalalar aniqlanadi. Har bir qadamda loyihalanayotgan dasturiy ta’minot funksiyalari aniqlashtirilib boriladi. Bu jarayon algoritmi eng sodda qismiy masalalar hosil bo’lgunga qadar davom ettiriladi.

Shunday qilib ushbu bitiruv malakaviy ish uchun qo’yilgan masala o’zbek tilining elektron lug’atini hosil qilish dasturiy mahsulot yaratishdan iborat. BMI da elektron lug’at yaratish dasturi masalasini qo’yilishi quyidagi shartlarga asoslangan:

- Matnni dasturga kiritish;
- Kiritilgan matnni so’zlarga ajratish;
- Matndagi so’zlarning ro’yxatini tuzish va so’zlarning chastotasini (so’z matnda necha marta ishtirok etganligini) hisoblash;
- So’zlar ro’yxatini alfavit bo’yicha tartiblash;
- Ro’yhatdagi har bir so’zni elektron lug’atga kiritish;
- Elektron lug’atni chiqarish;

Dastur ishining algoritmi

Axborot texnologiyalar sohasida kompyuterda biron-bir masalani yechilishini ta’minlaydigan ishdir. Qo’yilgan maqsadni amalga oshirish uchun kerakli ma’lumotlar tarkibi, tuzilishi, ifodalanishi aniqlangan bo’lib, ular orasidagi bog’lanishlar aniq ifodalangan bo’lsa, masala qo’yilgan deb hisoblanadi.

Algoritmni yozish uchun psevdokoddan foydalanamiz. Dastur foydalanuvchi bilan an’anaviy iyerarxik menyu orqali muloqotda bo’ladi deb hisoblaymiz. Menyu quyidagi bandlardan iborat:

Boshlash, kiritish, matnni so'zlarga ajratish, lug'atni hosil qilish, lug'atni faylga chiqarish, tamom.

Dasturni ishga tushirib ixtiyoriy matn kiritamiz va so'zlarni ajratamiz. Bu dastur menyu bilan ishlashni amalga oshiradi.

Dastur.

Global o'zgaruvchilar initsializatsiyasi

Sarlavha va menyuni chiqarish

Boshlash

Matn faylini tanlash

Toki *matn boshi* **dan** *Matn oxiri* **gacha**

Bajarish

Agar *so'z ajralsa*

U holda *jadvalga so'z qo'shsin*

Tugatish

Toki *1-soz* **dan** *oxirgi so'z* **gacha**

Bajarish

Agar *so'z1 = so'z2*

U holda *so'z1chastota = so'z1chastota+ so'z2chastota*

Aks holda *jadvalga so'z2ni qo'shsin*

So'zlar ro'yxatini faylga yozish

Tugatish

Tamom.

Endi qaysi fragmentlarni qismiy dastur sifatida yozish kerakligini aniqlaymiz. Birinchidan, "*Sarlavha va menyuni chiqarish*" fragmenti operatorlarning yetarlicha uzun chiziqli ketma-ketligidan iborat bo'lgani tufayli,uni alohida protsedura sifatida tashkillashtirish boshqaruvchi dasturni qisqartirishga olib keladi. "*Dasturga matn kiritish*", "*So'zlarga ajratish*", "*So'zlar ro'yxatini chastotali hosilqilish ", "Faylga chiqarish"* kabi amallar yetarlichamurakkab bo'lib, ularni alohida protseduralar sifatida yozish maqsadga muvofiq.

BMI dagi dasturning ish jarayonida dastlab matn fayldan o’qiladi va undagi so’zlar ajratilib olinib, alohida so’zlar massivi hosil qilinadi. Matndan tinish belgilari, raqamlar va so’z tarkibiga kirmaydigan boshqa xil belgilar tashlab yuboriladi. So’ngra so’zlar massivi alfavit bo’yicha tartiblanadi. Bunda takrorlanayotgan bir xil so’zlar massivda ketma-ket elementlarga joylashib qoladi va so’zlar chastotasini topish osongina bajatilishi mumkin. Uning algoritmi quyidagicha:



1.1-rasm. Kiritilgan matndan so’zlarni ajratib olish algoritmi.

Massivdagi har bir so’z o’zidan keyingisi bilan taqqoslanadi; agar ular bir xil bo’lsa, chastota miqdori 1 ga oshiriladi va takrorlangan so’z massivdan o’chiriladi, aks holda chastota o’zgartirilmasdan, navbatdagi so’zga o’tiladi. Bu jarayon oxirgi elementgacha davom ettirilib, massivda berilgan matnda uchragan so’zlar ro’yxati va ularning takrorlanish chastotalari hosil bo’ladi. Bu jarayonning algoritmi quyidagicha:



1.2-rasm. Alfavit-chastotali lug’at hosil qilish algoritmi.

Chastotali lug’at yaratish uchun mavjud lug’atdan eng katta chastotali so’z topiladi topiladi va shu chastotali so’zlar jadvalni birinchi satriga yoziladi. Undan skichik chastota topilib u ham jadvalga qo’shib boriladi. Toki chastota birga teng bo’lguncha tartiblash amalga oshiriladi. Shu tariqa chastotali lug’at yaratiladi. Uning algoritmi quyidagicha:



1.3-rasm. Lug’atdagi so’zlarni chastotasi kamayib borish tartibidagi algoritm.

Ters lug’at yaratish uchun har bir so’zni oxiridan boshlab o’qishga tushuniladi. Uning algoritmi quyidagicha bo’ladi:



1.4-rasm. So’zlarni teskari tartibda o’qish algoritmi.

Hosil bo’lgan elektron lug’atdan ma’lumotlarni qidirish algoritmi mavjud bo’lib, unda so’z bo’yicha qidirish mumkin yoki so’zning chastotasi bo’yicha qidirish mumkin. Topilgan ma’lumot o’zining xos parametrlari bo’yicha yangi jadvalda hosil bo’ladi. Ma’lumotlarni qidirish algoritmi quyidagicha:



1.5-rasm. Ma’lumotlarni qidirish algoritmi.

II. BO'LIM. ELEKTRON LUG'AT YARATISH VA UNING USTIDA TURLI AMALLAR BAJARISH ALGORITMLARI

2.1. Lug'at fayliga yangi elementlar kiritish

Lug'at faylini hosil qilish uchun fayldan foydalanildi. C++da fayllar bilan ishlash ftsream kutubxonasidagi biron-bir sinflar yordamida amalga oshiriladi. fstream kutubxonasi fayllarni o'qib olish uchun javob beradigan ifstream sinfiga, xamda faylga axobotning yozib olinishiga javob beradigan oftsream sinfiga ega.

Dasturda faylni yozish uchun oftsream turdagi yoki o'qish uchun ochish iftsream turdagi o'zgaruvchini yaratish kerak. Bunday o'zgaruvchini initsiallashda fayl nomi o'zgaruvchi nomidan keyin qavs ichida berilgan belgilar massivi ko'rinishida uzatiladi [6].

Dasturda lug'at elementlarini faylga yozish uchun quyidagi algoritmidan foydalanildi. Elektron lug'at yaratish dasturiy vositada lug'atni faylga yozish uchun LL TStringList turidagi dinamik o'zgaruvchisi olindi. Jadvaldagi lug'at LL o'zgaruvchisiga ta'minlandi. Undan so'ng LL o'zgaruvchisi faylga saqlanib o'zgaruvchi o'chiriladi. Uning algoritmi quyidagicha:

```
TStringList *LL=new TStringList;
        long long int i=1;
        ProgressBar2->Max=StringGrid2->RowCount-1;
        ProgressBar2->Position=0;
         while(i<=StringGrid2->RowCount-1)
          {
          LL->Add(StringGrid2->Cells[1][i]+" "+StringGrid2->Cells[2][i]);
                i++;
                ProgressBar2->Position+=1;
          }
        LL->SaveToFile("Lugat.txt");
        delete LL;
```

Bazaga yangi element qo'shish uchun har bir so'z bazadagi so'zlar bilan solishtirib chiqiladi. Agar u so'z bazada bo'lsa chastotasini bazadagi so'z chastotasiga qo'shib qo'yadi, aks holda yangi so'z bazadan topilmasa fayl oxiridan shu so'z chastotasi bilan qo'shib yoziladi.

Uning algoritmi va dasturi quyidagicha:



2.1-rasm. Lug’at bazasiga yangi element kiritish algoritmi.

```
for (i=1; i < l; i++)  {
    for (k1 = 1; k1 < t; k1++)
       {
        if(" "+StringGrid2->Cells[1][k1]==StringGrid1->Cells[1][i]) {
             k++;
StringGrid2->Cells[2][k1]=StrToInt(StringGrid2-
>Cells[2][k1])+StrToInt(StringGrid1->Cells[2][i]) ;
              }
        if( k==1){
          StringGrid2->RowCount++;
               StringGrid2->Cells[1][j]=StringGrid1->Cells[1][i];
         StringGrid2->Cells[2][j]=StringGrid1->Cells[2][i];
         StringGrid2->Cells[0][j]=j;j+=1;
        }
        }
t=StringGrid2->RowCount;
j=t;

l=StringGrid1->RowCount;
```

2.2. Lug’at elementlarini chiqarish

Fayldan elementlarni chiqarish. Axborotni fayldan o‘qib olish uchun ‘’>>’’ operatoriga ekvivalent bo‘lgan get funksiyasi qo‘llanadi. Put funksiyasikabi, get funksiyasi xam har qanday o‘zgaruvchilarning standart turlari yoki / va belgilar massivlari bilan ishlay oladi. SHuningdek get ga har jixatdan ekvivalent bo‘lgan getline funksiyasi mavjud: farqi faqat shundaki, getline funksiyasi satr oxiridan oxirgi belgini qaytarmaydi [6].

```
ifstream ofI (’’C:\text.txt’’);
char s; char ss[9];
s=ofI.get ();
cout<<s;
ofI.get(s);
cout<<s;
ofI.getline(ss,9);
cout<<ss;
ofI>>ss;
cout<<ss;
```

Fayl oxirini aniqlash. Fayl ichidagisini, fayl oxiri uchramaguncha, o‘kish dasturdagi oddiy fayl operatsiyasi xisoblanadi. Fayl oxirini aniqlash uchun,

dasturlar oqim ob’ektining eof funksiyasidan foydalanishlari mumkin. Agar fayl oxiri xali uchramagan bo‘lsa, bu funksiya 0 qiymatini qaytarib beradi, agar fayl oxiri uchrasa, 1 qimatini qaytaradi. Whilessiklidan foydalanib, dasturlar, fayl oxirini topmagunlaricha, qo‘yida ko‘rsatilganidek, uning ichidagilarini uzluksiz o‘qishlari mumkin:

```
while (! Input_file.eof())
{
  //Operatorlar
}
```

Ushbu xolda dastur, eof funksiyasi yolg‘on (0) ni qaytarguncha,ssiklni bajarishda davom etadi [7].

Xuddi shunday, keyingi dastur - WORD_EOF.CPP fayl ichidagisini bitta so‘z bo‘yicha bir martada, fayl oxiri uchramaguncha, o‘qiydi:

```
#include <iostream.h>
#include <fstream.h>
void main(void)
{
  ifstream input_file("BOOKINFO.DAT");
  char word[64] ;
  while (! input_file.eof())
  {
    input_file >> word;
    cout << word << endl;
  }
}
```

Elektron lug’at yaratish dasturiy vositada lug’atni faylda yozish uchun struktura yaratilib olinadi. Fayldan struktura orqali jadval to’ldiriladi. Uning algoritmi quyidagicha:

```
struct zapis{
        char suz[30];
        int chast;
};
//-------------------------------------------------
zapis soz;   long long i=1;
 ifstream fayl;
 fayl.open("Lugat.txt");
 StringGrid2->RowCount=2;
 ProgressBar1->Max=StrToInt(Label1->Caption);
 ProgressBar1->Position=0;
```

```
while(!fayl.eof())
 {
            fayl>>soz.suz>>soz.chast;
            StringGrid2->Cells[0][i]=i;
            StringGrid2->Cells[1][i]=soz.suz;
            StringGrid2->Cells[2][i]=soz.chast;
            StringGrid2->RowCount++;
            ProgressBar1->Position+=2;
            i++;
}
fayl.close();
```

2.3. Elektron lug‘at faylini tartiblash algoritmlari

Saralash algoritmi turli xil bo’lib dasturda MergeSort saralash algoritmidan foydalanilgan. Bu algoritmdan foydalanilganidan maqsad MergeSort algoritmi katta hajmdagi massivlarni saralaganda samaradorligi qolganlariga nisbatan yuqoriroq.

Birlashtirish orqali (MergeSort) saralash. MergeSort O(NlogN) da ishlaydigan optimal saralash algoritmlaridan biri. Eng yaxshi holatda ham, eng yomon holatda ham O(NLogN) assimptotikada ishlaydi. Hamda, u barqaror saralaydi, ya'ni sonlar ketma-ketligini buzmagan holda. Masalan, sonlardan tashqari, ularning kalit sonlari bo'lsa, kalit soni 3 bo'lgan 2 soni kalit soni 5 bo'lgan 2 sonidan oldin kelsa, MergeSortda saralangandan so'ng ham kalit soni 3 bo'lgan 2 soni oldin keladi. QuickSortda doim ham bu shart bajarilavermaydi.

Algoritmning ishlash prinsipi quyidagicha: Massivni teng ikkiga bo'lamiz. O'ng tomonni alohida saralaymiz, chap tomonni alohida. So'ng ikki saralangan qismni O(n) ya'ni n ta operatsiyada qo'shib, to'liq saralangan massiv olamiz. Aynan shu operatsiya, ya'ni qo'shish - Merge ning hisobiga algoritm shunday nom olgan. Endi chap va o'ng tomonlarini saralash uchun ham, ularni ikkiga bo'libxuddi shu ishni bajaramiz va hk. Massivni bo'lishni to unda 2 ta element qolgunchadavom ettiramiz [14].

Faraz qilaylik, bizda Merge(a: Array of Integer, Left, Mid, Right: Integer) funksiyasi bo'lsin. Ya'ni, a massivning L -- Mid qismi saralangan, Mid + 1 -- R

qismi saralangan. Shu qismlarni qo'shib, L -- R kesmada saralangan qilish. Bunda Mid L va R kesma o'rtasi.



2.2-rasm.



2.3-rasm.



2.4-rasm.



2.5-rasm.



2.6-rasm.



2.7-rasm.



2.8-rasm.



2.9-rasm.



2.10-rasm.



2.11-rasm.



2.12-rasm.

[L, R] oraliq m=(L+R) / 2 o’rtasi orqali ikkita [L, m] va [m+1, R] oraliqqa ajratiladi va ular alohida saralanadi.



2.13-rasm.

Shunday Merge funksiya asosida MergeSortni quyidagicha yozish mumkin.

```
#include <iostream>
using namespace std;
int helper[1000001];
void Merge(int a[],int left,int middle, int right){
        for (int i=left,j=middle,k=left;k<right;k++){
           if (i==middle) { helper[k]=a[j++]; continue;}
           if (j==right ) { helper[k]=a[i++]; continue;}
           helper[k]= ( a[i] < a[j] ) ? a[i++] : a[j++];
        }
        for(int k=left;k<right;k++)a[k]=helper[k];
}
void MergeSort(int a[],int left,int right){
     if (right-left==1)  return ;
     int middle=(left+right)>>1;
     MergeSort(a,left,middle);
     MergeSort(a,middle,right);
     Merge(a,left,middle,right);
}
int main(){
    int a[10000] , n , i;
    cin>>n;
    for(i=0;i<n;i++)  cin>>a[i];
```

```
    MergeSort(a,0,n);
    for (i=0;i<n;i++)   cout<<a[i]<<" ";
    return 0;
}
```

Tezkor saralash (Quick Sort) algoritmi. Saralashning bir nechta effektiv algoritmlari topilgan. Ulardan biri bu QuickSort() bo'lib (tez saralash) u quyidagicha ishlaydi.

1964 yilda Charlz Hoar tamonidan taklif qilingan. Charlz Hoar ingliz olimi, informatika va hisoblash texnikasi sohasida yetuk mutaxassis. Uning “Tezkor saralash” algoritmi saralash bo’yicha eng ommobop algoritm [14].

Massivning o'rtasidagi element olamiz va uni x deymiz. Endi, barcha x dan katta sonlarni x dan o'ng tomonga, kichiklarini chap tomonga o'tkazamiz. Keyin shu ishni x dan chap tomondagi (x dan kichkina sonlar) uchun va x dan o'ng tomondagi (x dan katta sonlar) uchun qilamiz. Bu ishni rekursiv qilgan yaxshiroq (programma qisqa chiqadi).



2.14-rasm.

[L, R] saralanishi kerak bo’lgan oraliq.

m = (L+R) / 2 – kesmanig o’rtasi.

X=a[m] - bo’luvchi element.

Chap tamondan X dan kichik katta yoki teng bo’lgan birinchi elementni topamiz. O’ng tamondan X dan katta bo’lmagan birinchi elementni topamiz. Ikkalasining qiymatini almashtirzmiz [2.15-2.18-rasmlar].



2.15-rasm.



2.16-rasm.



2.17-rasm.



2.18-rasm.

Algoritm assimptotikasi - o'rtacha O(NlogN). Eng yomon holatda O(N^2) Bunday holatda pand yemaslik uchun, ya'ni O(N^2) da ishlaydigan test bersa, Quicksortni random variantini ishlatgan ma'qul. Ya'ni, har safar kesmadagi ixtiyoriy elementni x deb olamiz, bunda algoritm tezligi 5-10 % pasayishi mumkin, lekin bu vaqtga uncha ta'sir qilmaydi:

```
#include <stdio.h>
int a[1000000];
void qsort(int left, int right)
{
    int l = left, r = right, m = a[(l+r) / 2], tmp;
    while(l <= r){
          while( a[l]<m)l ++;
          while(a[r]>m)r --;
          if(l<=r){
            tmp = a[l];
            a[l] = a[r];
            a[r] = tmp;
            l ++ ;
            r -- ;
          }     }
    if(l<right) qsort(l,right);
    if(left <r) qsort(left, r);
}
int main()
{
   int n,i;
   cin>>n;
   cin>>a[i];
   qsort(0,n-1);
   cout<<a[i]<<" ";
   return 0;   }
```

Shell usuli. 1959 yilda D.L.Shell tomonidan taklif etilgan va keng foydalaniladigan bu usul juda kam xotira talab etadi va saralashda yuqori tezlikni ta’minlaydi. Usul qo’yish usuli kabi elementlarni solishtirish va joyini almashtirishdan foydalanadi, lekin undan farqli o’laroq solishtirishda qo’shni elementlar emas, balki bir-biridan muayyan masofada bo’lgan elementlar solishtiriladi. Almashtirish zaruriyati tug’ilganida elementlar qo’yish usulidagi kabi bitta pozitsiyaga emas, shu masofaning o’ziga sakrab o’tadi []8.

Yuqoridagi usul bilan saralash uchu N elementdan iborat ketma-ketlik N/2 yoki N toq son bo’lsa (N-1)/2 guruhga bo’linadi. Har bir guruh ikki elementdan iborat bo’ladi. Agar elementlar soni toq bo’lsa, bir qismi uch elementdan iborat bo’ladi. Bitta guruhga mansub elementlar bir-biridan N/2 pozitsiyada joylashadi. Bu masofa **qadam** deb ataladi. 2.19-rasmda dastlabki ketma-ketlik A ning o’n bitta

elementi beshga teng qadam bilan beshta guruhga bo'linadi. Bitta guruhga mansub elementlar qavslar bilan birlashtiriladi.

Birinchi o'tish davomida har bir guruh elementlari qo'yish usuli bilan tartibga solinadi. 18-rasmdagi misolga murojaat etamiz. Birinchi o'tish natijasida birinchi guruh elementlarining kelish tartibi o'zgartiriladi. Element birinchi pozitsiyani egallaydi, 3 va 5-elementlar o'ng tomonga suriladi va tegishlicha oltinchi hamda o'n birinchi pozitsiyalarni egallaydi. Shuningdek ikkinchi guruh elementlari (21 va 7) va beshinchi guruh elementlari (9 va 2) joy almashadi.

Keyingi har bir o'tishni amalga oshirish uchun Shell oldingi qadam (kasr sonlarda uning butun qismi olinadi)ning yarmiga teng bo'lgan qadam belgilashni taklif etdi. Bunday holda ko'rib chiqilayotgan misolimiz uchun guruh elementlari o'rtasidagi qadam ikkinchi o'tishda ikkiga teng.

Ikkinchi o'tishda ikki guruh elementlari tartibga solinadi: 1, 6, 2, 11, 10, 5 elementlaridan iborat bo'lgan birinchi guruh va 7, 4, 3, 8, 9 elementlaridan iborat bo'lgan ikkinchi guruh. Ikkinchi o'tish natijasida bu guruhning elementlari ularning qiymati oshib borishi bo'yicha tartibga solingan bo'ladi.



2.19-rasm. Shell usulida saralash misoli

Uchinchi o'tish uchun 1 ga teng bo'lgan qadam belgilanadi va yagona guruh tartibga solinadi. Juft solishtirishlar va almashtirishlar natijasida dastlabki ketma-ketlik uchinchi o'tishdan so'ng to'la tartibga solngan bo'ladi.

N elementdan iborat ketma-ketlikni saralash uchun log2N ga yaqin o'tishlar talab etiladi. Shell usulida saralash uchun zarur bo'lgan solishtirishlar soni

qadamga juda bog'liqdir. Shu vaqtgacha qadamlarning ketma-ketligini qanday tanlash zarur degan masala muhokama qilib kelinmoqda. Shellning o'zi tomonidan N/2, N/4, N/8 va hokazo ketma-ketlik taklif etilgan. Solishtirishlar sonini baholash Nlog2N formula bo'yicha amalga oshiriladi [8].

```
void shellSort(int numbers[], int array_size) {
 int  i,j, increment, temp;
increment = 3;
while (increment > 0)
{
for( i =0;  i< array_size; i++ )
 {
j=i;
temp = numbers[i];
whie ((j>=increment) && (numbers[j-increment]>temp))
   {
     numbers[j] = numbers[j-increment];
    j = j-increment;
    }
        numbers[j] = temp;
}
if ( increment/2 != 0)
increment = increment/2;
else if (increment == 1)
increment = 0;
else
increment = 1;
}  }
```

Saralash usullarini tanlashda hisobga olinadigan omillar. Ko'rib chiqilgan saralash usullari turli shaklda bo'lishi mumkin; ulardan har birini amalga oshirishda turli protseduralar zarur bo'ladi. Masalan almashtirish usulining faqat bitta modifikatsiyasi – pufakcha usuli bayon etilgan. Bu usulning boshqa modifikatsiyalari ham bo'lishi mumkin. Elementlarni qo'yish yo'li bilan saralash mohiyat jihatidan tartibga solingan ketma-ketlikka yangi elementlarni ketma-ket qo'yishga asoslangan saralash usullari guruhning umumiy nomlanishidir. Ko'rib chiqilgan usulning prinsipini to'la ko'rsatib beradigan chiziqiy qo'yishdan tashqari yana markazlashgan va ikkilangan qo'yishlar ham mavjuddir.

Bir qator monografiyalar hamda maxsus tadqiqotlar saralashning turli usullari hamda algoritmlarini ko'rib chiqish va baholashga bag'ishlangan. Odatda, kompyuterning asosiy xotirasida amalga oshiriladigan saralash ko'p vaqt talab etmaydi va aksariyat hollarda ko'rib chiqilgan usullarda istalganidan foydalaniladi.

Lekin ba'zida muayyan talablarga javob beradigan saralash usulini tanlash yoki ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi. Bunday vaziyat OXning bo'sh hajmiga qat'iy cheklashlar qo'yilgan hollarda, shuningdek saralanadigan ma'lumotlarning tavsiflari qandaydir oddiy bo'lmagan tarzda qo'shilishi natijasida odatdagi yaxshi usullardan foydalanish uncha samara bermaydigan holatlarda yuzaga kelishi mumkin. Bunday vazifani hal qilish uchun saralash samaradorligiga ta;sir qilishi mumkin. Bo'lgan omillarni tahlil qilish va tanlangan usulni test dasturlarida sinab ko'rish zarur.

Tashqi saralash dasturini ishlab chiqish ancha murakkab mustaqil vazifa bo'lib, samarali saralash-qo'shish dasturlarini yaratish bilan tor soha mutaxassislari shug'ullanadilar. Odatda, EHM ning matematik ta'minoti tarkibida tayyor tashqi saralash paketi mavjud bo'ladi. Yoki uni sotib olish mumkin. Faqat dastlabki ma'lumotlar yoki muayyan kompyuterning konfiguratsiyasiga bog'liq bo'lgan u yoki bu sabablarga ko'ra tayyor paketdan foydalanish mumkin bo'lmagan hollarda mustaqil ravishda tashqi saralash dasturini ishlab chiqishga to'g'ri keladi.

Saralashning u yoki bu usulini tanlash va baholashda hisobga olinishi zarur bo'lgan asosiy omillarni ko'rib chiqamiz [8].

Saralanadigan massivning o'lchami. Saralanishi zarur bo'lgan massivdagi yozuvlar miqdorini baholash tashqi saralash kerakligi yoki kerakmasligini, ya'ni saralash uchun OXning bo'sh hajmi yetarli ekanligini aniqlash imkonini beradi. Bunda xotiraning eng kichik hajmidan foydalanuvchi usullarni qo'llash zaruriyati ham aniqlab olinadi [8].

Kalit uzunligi. Kalitning uzunligi va yozuv chegarasidagi joylashgan o'rin solishtirish operatsiyalarini bajarish uchun zarur vaqtni belgilab beradi. Bunda kalit erkin foydalanish mumkin bo'lgan yozuv maydoni ekanligini yoki kalitni yozuvdan chiqarib olish uchunqo'shimcha tadbirlar, masalan "maskirovkalash"

zaruriyatini aniqlab olish kerak. Keying holda kalitni chiqarib olish uchun sarflanadigan vaqtni baholash zarur

Kalit mashina bilan bevosita ishlov beriladigan tuzilmaga to’g’ri keladimi yo’qmi, buni bilish ham juda muhimdir. Balki kalitga oldindan ishlov berish va uni ancha qulayroq shaklda taqdim etish zaruriyati yuzaga kelishi mumkin [8].

Kalitlar turi. Solishtirish vaqti ma’lumotlarning ichki taqdim etilishiga va ularni turli tiplarini solishtirish buyruqlarining mavjudligiga bog’liq. Masalan, agar kompyuterda “o’nliklar bo’yicha solishtirish” buyrug’i bo’lmasa, kalitni ikkitali kodga aylantirishga to’g’ri kelishi mumkin. Kalitlarni o’zgartirish vaqti saralash vaqtiga qo’shiladi [8].

III.BOB. DASTURIY MAJMUA TAVSIFI VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI

3.1. Dasturiy majmuaning strukturasi

Dasturiy majmuaning funksional strukturasi 3 ta asosiy va 18 ta qo'shimcha modullardan iborat(3.1-rasm):



3.1-rasm. Elektron lug'at hosil qilish tuzilmaviy sxemasi.

1. **Asosiy modul** – barcha modullarni boshqaradi.

2. **Dasturiy ta’minotga matn kiritish moduli -** Dasturga matn kiritish uchun foydalaniladi va asosiy oynada kiritilgan matn ko’rinadi.

2.1. **Kiritilgan matnni so’zlarga ajratish moduli -** Bu modul orqali kiritilgan matn so’zlarga ajratib olinadi va so’zlar alfavit tartibi bo’yicha aks ettiriladi.

2.2. **Alfavit bo’yicha so’zlarni hosil qilish moduli** - Ajratilgan so’zlar chastotalarini hisoblab alfavit bo’yicha tartiblab beradi.

2.3. **Chastotasi kamayib borish tartibida elektron lug’atni hosil qilish moduli** – so’zlarni matnda eng ko’p ishtirok etgani bo’yicha kamayib boorish tartibida tashkil etiladi.

2.4. **Lug’atni teskari alfavit bo’yicha hosil qilish moduli** –Lug’atdagi har bir so’zni teskarisiga o’qiydi va alfavit tartibi bo’yicha tartiblash vazifasini bajaradi.

2.5. **Dasturga kiritilgan matnni so’zlarini miqdorini aniqlash moduli –** Matndagi nechta so’z borligini aniqlab beradi va ishtirok etgan so’zlar hajmini hisoblab berish moduli hisoblanadi.

2.6. **Yaratilgan lug’atni faylga saqlash moduli -** Yangi yaratilgan lug’atni bazadan tashqari boshqa faylga saqlaydi.

2.6. Dastur haqida ma’lumot berish moduli **-** Yangi yaratilgan lug’atni bazadan tashqari boshqa faylga saqlaydi.

3. **Yangi lug’atni ko’rsatish moduli –** Bu modulda yangi lug’at o’zining harakteristikasi (Alfavit, chastotali, ters) bo’yicha ko’rinadi.

3.1. **Asosiy bazani ko’rsatish moduli –** Lug’at bazasini ochadi.

3.2. **Yangi lug’atni asosiy bazaga qo’shish moduli –** Bunda yangi lug’atni asosiy lug’atni davomidan qo’shib boradi.

